



O‘QUVCHILARDA NUTQ MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METOD VA TEXNOLOGIYALARI

Sobitxon Toshpulatov

*Namangan shahar Davlatobod tuman 18-sonli
ixtisoslashtirilgan maktab-internati ona tili adabiyoti fani
o‘qituvchisi, Xalq ta’limi a’lochisi*

Hozirgi shiddatli tezkor zamon barcha sohalar kabi ta’lim soxasiga ham ijodiy, tashabbuskor, bilimli kadrlarni tayyorlash vazifasini quymoqdaki, busiz kelajakni tasavvur qilish qiyin. Bu jarayonni albatta pedagoglarimiz amalga oshirishadi. Har bir fanni o‘quvchi ongiga singdirish va kerakli xulosalash uchun o‘quvchida o‘z ona tilisida ravon, chiroyli gapirish, madaniy nutq va notiqlik san’atidan xabardor qilishdek mas’uliyat talab qilinadi. Yurtimizda ma’naviy-ma’rifiy isloxotlar davlat siyosatining ustivor yunalishi bulib xisoblanadi. O‘z fikrini mustaqil, o‘z ona tilisida ravon, guzal va lo‘nda ifoda etadigan shaxsni tarbiyalash davr talabi hisoblanadi. Sharqona muomala madaniyati har bir bir o‘zbek oilasiga xos fazilatdir.

Ma’lumki azaldan xalqimiz muloqot nutqi, muomala nutqi orqali fikrlashib kelgan. Hozirgi zamon pedagogikasi o‘quvchida nutq malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratish kerakligini o‘qtirmoqda. Sharqona muomala madaniyati har bir o‘zbek o‘quvchisiga xos fazilat sanaladi. Bu fazilatlar asrlar davomida shakllanib bormoqda.

Hozirgi zamon pedagogikasida insonga ta’lim va tarbiya berishning ilmiy asoslangan, inson tafakkuriga, ya’ni ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining intellektual salohiyatiga bog‘lik xolda amalga oshiriladigan jarayonlar albatta nutq jarayonida amalga oshiriladi. O‘quvchini har qanday holda shunday nutqiy ko‘nikmaga erishtirmog‘imiz kerakki, bu uning yoshi, jinsi, va boshqa ko‘rsatkichlaridan qat’iy nazar u tinglovchi sifatida kerakli ma’lumotni olishida muxim omil bo‘lsin. Har bir dars jarayoni o‘quvchining fanni o‘zlashtirish kobilyati va yetarli nutqiy ko‘nikmaga ega ekanligi bilan ahamiyatli. Har bir dars

jarayoni o‘qituvchining darsni oldindan loyixalashtirib kelgan dars o‘tish uslubi, sinfni tayyorlash, o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazish, ularni fanni chuqur o‘zlashtirishiga qaratilgan jarayonlarga tayyorgarligiga qaratiladi. Shundagina darsni o‘zlashtirishda maqsadga erishiladi. Biz hozirgacha foydalanib kelgan uslublar biroz o‘z kuchini yuqotdi. Bu albatta davr talabi, qolaversa, hozirgi maktab yoshidagi o‘quvchilar jamiyat va oila muxitidagi jonli muloqotlarning aynan ishtirokchilari.

O‘quvchilar hozirgi zamon axborotlar makonida zarur va kerakli ma’lumotlarni mustaqil olishga qiynalishadi. O‘quvchilar adashishlari mumkin, albatta, bunda ma’ruzalar to‘g‘ri yo‘l kursatadi. Endi bu ma’ruzalar eski usulda emas, jonli muloqot ya’ni nutqiy jarayon asosida bo‘lmog‘i kerak. Har bir mashg‘ulotda o‘quvchi nutqini rivojlantirishga qaratilgan uslublar alohida ahamiyat kasb etadi. Bular bahs, munozara, suhbat, muhokama kurinishida bo‘lmog‘i kerak. Bunday innovatsion uslublar o‘qitishning interaktiv uslublarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

Odatda, pedagogik texnologiyalarning ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ularda o‘quvchining nutq madaniyatini shakllantirish maqsad qilib olingan. Bu jarayonda o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlovchi o‘quvchi shaxsi nutqini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Yana bu jarayon o‘quvchilar nutqini rivojlantirishga qaratilgan bajarilishi shart bulgan jarayondir.

O‘quvchi nutqni ravon bo‘lishi albatta ularning ko‘p muloqotga kirishi va fikrini tiliq ifodalashiga bog‘liq. O‘qilgan asar, kuzatilgan voqelik, ko‘rilgan har qanday voqelikka asoslangan fil’mlar haqidagi suhbatlarga tayyorgarlik ko‘rish jarayoniga bog‘liq albatta. Bunda har bir nutq jarayoni chuqur tahlil qilinishi kerak. Yo‘l qo‘yilgan kamchilik va nimalarga ahamiyat berish jarayonda aytib boriladi.

Jamiyat mavjud ekan, har bir shaxsning odobi, albatta, uning nutqida namoyon bo‘ladi. Azaldan inson dilini ogritadigan, yomon xabarlarini ham tinglovchiga beozor yetkazishning turli kurinishlari bo‘lgan bo‘lib, shaxslararo

muloqotlarda ko‘rinib kelgan. Tinglovchi notiq nutqidan zavqlanishni bilgan, bu uning bilimi, madaniyati, qolaversa, notiqlik mahoratidan darak bergan. Chunki muloyim, yoqimli, odobli so‘zlash ham bir san‘at sanalgan. Bunday nutq jarayonlari o‘quvchilarga ibratli kishilarga (ko‘proq yaxshi ko‘rgan ustozlariga) taqlid qilishda kuringan.

Insonlararo muloqot o‘zaro muomala jarayonida amalga oshadigan jarayon hisoblanadi. Muomala – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro a’loqa vositasidir. Muomaladagi asosiy vosita esa til hisoblanadi. Shuning uchun ham til - a’loqa quroli hisoblanadi. O‘quvchini muomala madaniyatiga o‘rgatish ham uning nutqini rivojlantirishga qaratiladi.

O‘quvchilarda nutq malakalarini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari orqali axborotlarni uzatish manbalari orqali amalga oshiriladi. Asosan ma’ruza shakllari va uning shakllaridagi o‘zgarishlar o‘quvchi nutqining shakllanishida muhim ro‘l o‘ynaydi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi o‘quvchi yoshlar nutqiga ahamiyatli bulish doimiy diqqat e’tibor markazimizda hisoblanadi, shunday ekan, mashgulotlarda nutqiy jarayonlar rivojiga katta e’tibor berilmog‘i lozim, zero o‘quvchilarimiz nutqi ularning kelajamiz uchun asosiy manba bo‘lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Sobirova, M. (2022). In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>
2. Sobirova, M. (2020). Assimilation of human qualities during the process of working with text. International Scientific Journal “Theoretical & Applied Science” SOI: 1.1/TAS (<http://t-science.org/axiv> DOI/2020/12-92.html) (DOI:10.15863/TAS Published: 18.12.2020.
3. Sobirova, M. (2020). The role of the family in the development of the integration process in science and education. "A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal" (<https://journalnx.com/papers/20151362-the-integration-process.pdf>)



impact faktorga ega bo‘lgan DOI raqamli jurnali. 2020 y. 18-19 uyun. – B. 1161-1166.

4. Q.Husanboyeva. Adabiyot o‘qitish metodikasi va muammoli ta‘lim [Matn] / o‘quv qo‘llanma: – Toshkent: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2021-yil. – 366 bet.

5. Sobirova M. O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi. Darslik. – Namanagan: Arjumand media, 2023. – B.512.

6. Sobirova, M.Y. (2023). The role of educational tools in anthropocentric relationship education. European Journal of Education and Applied Psychology 2023, No 4. <https://doi.org/10.29013/EJEAP-23-4-52-58>

7. Sobirova, M. (2023). Teaching language phenomena through text analysis on the basis of anthropocentric approach. International bulletin of applied science and technology. Impact factor: 8,2 SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 Volume 3, Issue 4, April. 481-486-pages. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7827423>